

## Omonat (depozit) shartnomasi №

2025 yil \_\_\_\_\_

Toshkent shahri

“Garant bank” aksiyadorlik jamiyati tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan \_\_\_\_\_ - sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko‘rsatuvchi “Garant bank” AJ Amaliyot boshqarmasi/ \_\_\_\_\_ BXO nomidan bank boshqaruvchisi [manager] kelgusida “Bank” deb yuritiluvchi, bir tomonidan va o‘z nomidan yoki uning nomidan harakat qiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_, kelgusida “Omonatchi” deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. “Omonatchi”dan “Bank” 20606- depozit turidagi hisobvarag‘iga so‘m valyutada pul mablag‘larini qabul qiladi va ushbu shartnomaning 1.2 - bandida belgilangan shartlar asosida naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda omonatni foiz daromadlari bilan qaytaradi.

1.2. Omonat turining nomi “**Hurmatli**”, topshirayotgan mablag‘ miqdori \_\_\_\_\_ so‘m, saqlash muddati 36 (o‘ttiz olti) oy, foiz stavkasi yillik 19 (o‘n to‘qqiz) foiz.

1.3. Omonatlarga mablag‘lar qo‘yidagi shartlar asosida qabul qilinadi:

- omonatni qabul qilishning eng kam miqdori 100 000 000 (bir yuz million) so‘m tashkil etadi. Omonatga mablag‘ joylashtirishning yuqori chegarasi belgilanmagan;

- omonatchining dastlabki summasi ustiga qo‘srimcha mablag‘ qabul qilish ushbu tartibga muvofiq 24 (yigirma to‘rt) oygacha ruxsat etiladi;

1.4. Foizlar har kuni mijozning talab qilib olinguncha hisobraqamiga o‘tkaziladi va ushbu foiz mablag‘laridan tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyati mavjud emas. Omonatchi tomonidan mazkur omonatga qo‘yilgan mablag‘ni shartnomada ko‘rsatilgan muddatidan oldin olish istagini bildirsa, foizlar quyidagi tartibda to‘lanadi;

- omonat 18 (o‘n sakkiz) oy muddatgacha saqlangan taqdirda foizlar 18 (o‘n sakkiz) foiz miqdorida to‘lanadi;

- omonat 18 (o‘n sakkiz) oydan 24 (yigirma to‘rt) oyga qadar saqlangan taqdirda foizlar 19 (o‘n to‘qqiz) foiz miqdorida to‘lanadi.

1.5 Omonatga hisoblangan foizlar kapitalizatsiya qilinmaydi, ya’ni hisoblangan foizlarga qo‘srimcha tarzda foiz hisoblanmaydi.

1.6 Omonat hisobvarag‘iga pul kiritilish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi. Muddatli omonat turi bo‘yicha qaytarish sanasida omonatchi tomonidan omonat olinmagan hollarda, ushbu omonat talab qilib olinguncha omonat turi shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi. Talab qilib olinguncha va jamg‘arma omonat turida omonatni qaytarish sanasi omonatchining hohishiga ko‘ra hisobvarag‘ini to‘liq yopgan sana hisoblanadi.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 382-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning omonat foizi daromad to‘lovlaridan 10 foiz soliq undirilishi shart.

### 2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

#### 2.1. Bankning huquqlari:

2.1.1. “Omonatchi”ning hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i o‘zgarganda (kim va chiqim amaliyotlari bo‘lganda) omonatchiga omonat qoldig‘i to‘g‘risida uyali aloqa telefoniga tekin bo‘lgan “SMS-xabar” xizmati orqali xabardor qilish uchun, bank omonatchining uyali aloqa telefoni raqamini, zaruriy hollarda uy telefon raqamini so‘rab olish huquqiga ega.

2.1.2. “Omonatchi” yoki uning qonuniy vakillaridan hisobvaraq ochish hamda amaliyotlarni bajarishda shaxsini aniqlash uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatilishini talab

etish hamda uning nusxasini olish huquqiga ega. Zaruriy hollarda qonunda ko‘zda tutilgan boshqa qo‘shimcha hujjatlarni talab qilishga.

2.1.3. “Bank” “Omonatchi” yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan bankning omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun taraflarning qo‘shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.

2.1.4. “Omonatchi” yoki qonuniy vakillari tomonidan omonat muddati tugagandan so‘ng, omonat mablag‘larini qaytarib berishni talab etmagan yoki boshqa omonat turiga rasmiylashtirilmagan hollarda, omonat mablag‘lari summasiga omonat qaytarilgan kunga qadar “talab qilib olinguncha” omonat turi foiz miqdorida foizlar hisoblab boriladi.

2.1.5. Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha 1 yil davomida, jamg‘arma va muddatli omonatlarning muddati tugagandan keyin 1 yil davomida foizlar hisoblanishidan tashqari hech qanday amaliyotlar amalga oshirilmagan omonatlar bo‘yicha “Bank” omonat hisobvarag‘i chiqim operatsiyasiga ta’qiq qo‘yish huquqiga ega.

2.2. Bankning majburiyatları:

2.2.1. Bank “Omonatchi”ni omonat turi, shart va qoidalari bilan tanishtiradi.

2.2.2. Ushbu shartnomaga imzolangan kuni “Omonatchi”ga omonat mablag‘larini saqlash uchun hisobvaraqtan ochadi va ushbu hisobvaraqtan hisobini yuritadi.

2.2.3. “Omonatchi”ga ushbu hisobvaraqtan bo‘yicha imzolangan shartnomaning bir nusxasini shuningdek, pul mablag‘lari qo‘yilganligi uchun rasmiylashtirilgan omonat daftarchani №\_\_\_\_\_ va tasdiqnomani taqdim etadi.

2.2.4. Ushbu hisobvaraqtan bo‘yicha omonat mablag‘lariga foizlarni hisoblash, ushbu omonat turi qoidasidagi shartlar asosida amalga oshiradi. Omonat summasiga foizlar har bir oy o‘tganidan keyin omonatchining talabi bilan to‘lanadi, bu muddatda talab qilib olinmaganda, foizlar yoziladigan omonat summasiga qo‘shilib boriladi. Omonatga topshirilgan mablag‘ qo‘yilgan kunning o‘zida to‘liq yoki qisman qaytadan berilsa, foizlarni hisoblashda omonat berilgan kun to‘liq va qisman kaytarilgan omonat qismi hisobga olinmaydi.

2.2.5. Bank “Omonatchi”ning birinchi talabiga asosan omonatdagi pul mablag‘larini to‘liq hajmda foizlari bilan birga qaytarilishini ta’minlaydi hamda omonatning qaytarilishi ta’minlanganligi to‘g‘risida axborot berish majburiyatini oladi.

2.2.6. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq omonatni sir saqlanishini ta’minlaydi. Qonun hujjatlari maxsus nazarda tutilgan hollardagina, omonatga aloqador ma’lumotlar uchinchi shaxslarga Omonatchining roziligidan berilishi mumkin.

2.2.7. Agar omonatchi muddati tugagan, muddatli omonatini aynan shu omonatga qaytadan qo‘yish (muddatini uzaytirish) istagini bildirsa, bank kassasida chiqim va qayta kirish amallari bajarilmasdan, omonat summasi va unga hisoblangan foizlari (agar omonatchi foizlarni talab qilmasdan omonat summasiga qo‘shmoqchi bo‘lsa) bilan birga qayta rasmiylashtiriladi.

Bunda omonatchiga yangi omonat daftarchasi rasmiylashtirilmasligi va yangi hisobvaraqtan ochilmasligi mumkin.

Muddati uzaytirilgan omonat to‘g‘risidagi qaydlar omonat daftarchasining navbatdagidan qatoriga kiritilishi va nazoratchi imzosi hamda muhri bilan tasdiqlanishi shart.

Mazkur qaydlar shaxsiy hisobvaraqtan varaqchasingin navbatdagidan qatoriga kiritiladi hamda omonatchi va nazoratchining imzolari bilan tasdiqlanadi.

2.2.8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning me’yoriy hujjatlariga muvofiq omonatga foizlar kunlik hisoblanib, bir yil uchun 365 kunga hisoblanadi, ya’ni foizlar oylik hisoblanganda omonatga qo‘yilgan muddat davrida o’sha oylar necha kundan iborat bo‘lsa shuncha kunga hisoblanadi.

2.2.9. Omonat summasiga foizlar omonat mablag‘i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi.

“Omonatchi”ning hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi yoki yozilmaydi.

2.2.10. “Bank” tomonidan omonat mablag‘larini “Omonatchi”ga yoki qonuniy vakiliga faqatgina, ushbu hisobvaraqlar bo‘yicha berilgan omonat daftarchaga muvofiq, omonat daftarcha yo‘qolgan hollarda omonat daftarcha yo‘qolganligi to‘g‘risidagi arizasiga muvofiq, “Omonatchi” yoki qonuniy vakili tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatilganda to‘lab beriladi.

### 2.3 Omonatchining huquqlari:

2.3.1. Pul mablag‘larini omonat hisobvaraqlarida saqlash uchun “Bank” tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilgan omonat turlarining qoidalari bilan tanishib chiqish huquqiga ega.

2.3.2. “Bank”da hohlagan sonda omonat hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

2.3.3. “Omonatchi” omonat hisobvarag‘iga naqd pul yoki naqd pulsiz shakllarda mablag‘larini kiritishi, hisobvaraqdan pul mablag‘larini chiqim qilib olishi hamda arizasiga asosan naqd pulsiz shaklda boshqa hisobvaraqlarga o‘tkazishi mumkin.

2.3.4. “Omonatchi” hisobvaraqlarga pul mablag‘larini kiritgandan so‘ng, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan omonat daftarchani va tasdiqnomani olish huquqiga ega.

2.3.5. Agar omonatga qo‘yilgan mablag‘ bo‘yicha omonat turining shart qoidasida nazarda tutilgan bo‘lsa, “Omonatchi” muddati tugagan, muddatli omonatini aynan shu omonatga qaytadan qo‘yish (muddatini uzaytirish), ya’ni omonat summasi va unga hisoblangan foizlari (agar omonatchi foizlarni talab qilmasdan omonat summasiga qo‘shmoqchi bo‘lsa) bilan birga qayta rasmiylashtirish huquqiga ega.

2.3.6. Omonatga qo‘yilgan mablag‘larni o‘zi yoki qonuniy vakili orqali O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tasarruf etishi, shuningdek bankdan omonatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni og‘zaki, yozma va uyali aloqa telefonidan “SMS-xabar” shaklda yoki Internet orqali www.Garantbank.uz vebsayt orqali olishga xaqli.

2.3.7. Omonatning saqlash muddati tugaganda, ushbu shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq, omonat hisobvaraqdan pul mablag‘larini unga hisoblangan foizlar bilan birga to‘liq hajmda olish huquqiga ega.

2.3.8. “Omonatchi” bankdan kredit olganda, shartnomaga taraflarining qo‘srimcha kelishuviga asosan omonatga qo‘yilgan mablag‘lar va unga hisoblangan foizlar hisobidan mazkur kredit qarzdorliklarini qoplash huquqiga ega.

2.3.9. Omonatni tasarruf etish uchun “Omonatchi” hohlagan shaxsga bank hisobvarag‘idan bir marta yoki bir necha marta pul olish, omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni va omonat summasini to‘liq olish yoki omonatni qayta rasmiylashtirish hamda boshqa turdagি omonatga o‘tkazish amaliyotlari uchun “Ishonchnoma” berishi yoki rasmiylashtirish huquqlariga ega.

### 2.4. Omonatchining majburiyatlari:

2.4.1. Pul mablag‘larini omonatda saqlash uchun omonat turlarining shart-qoidasi bilan tanishib chiqqandan so‘ng, “Omonatchi” omonat bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarga o‘zining husnixati bilan yozishi va imzosi bilan tasdiqlashi shart.

2.4.2. Omonat hisobvaraqlarini ochish uchun “Bank”ka shaxsini tasdiqlovchi hamda boshqa zaruriy hujjatlarni taqdim etish. Omonatchi yoki uning vakilini shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarda o‘zgarishlar bo‘lganda, bu haqda bankni xabardor qiladi.

2.4.3. “Omonatchi” ushbu shartnomaning 1.2 bandida ko‘rsatilgan summani shartnomaga imzolangan kundan kechiktirmasdan bank kassasiga topshirishi yoki o‘zining omonat hisobvarag‘iga o‘tkazib berishi shart.

2.4.4. “Omonatchi” yoki uning qonuniy vakillari topshirig‘iga binoan omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun bank Tarifiga asosan vositachilik haqini to‘laydi. Muddatli omonatlarga ochilgan hisobvaraqlar bo‘yicha bajariladigan amaliyotlar bundan mustasno.

2.4.5. Olingan omonat daftarchani yaxshi holatda saqlashi, yo‘qotilgan hollarda bu haqida “Bank”ka yozma ravishda xabar berishi shart.

2.4.6. Muddatli omonatni saqlash muddati tugamasdan olish istagi bo‘lsa, “Bank”ni omonatni olishni mo‘ljallanayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi shart.

2.4.7.“Omonatchi” amaldagi qonun hujjatlariga to‘liq rioya etgan holda omonat mablag‘larini shaxsan o‘zi yoki vakili orqali “Bank”ning omonat kassalariga topshirishi shart. Omonatchi vakilga omonat bo‘yicha hisobvaraq to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni berish bilan ulardan pul mablag‘larini olishga rozi bo‘lgan deb hisoblanadi.

2.4.8. Omonatni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lmagan “Bank”ning mas’ul shaxslariga omonat bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirmasdan pul mablag‘larini topshirish qat’iyan taqiqlanadi.

2.4.9. “Omonatchi”ning hisobvaraqdagi pul mablag‘lari daxlsizligi ta’minalash maqsadida, “Omonatchi” har chorakda kamida bir marotaba bankga kelgan holda hisobvaraqdagi omonat qoldig‘i va foizlarini omonat daftarchasidagi qoldig‘i bilan mos kelishini solishtirib turish majburiyatini oladi.

### **3. Taraflarning javobgarligi**

3.1.Taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar, shuningdek shartnomaga shartlari lozim darajada bajarilmaganligi yuzasidan kelib chiqqan zararlarni qoplaydilar.

3.2.“Omonatchi” omonatga doir qonun hujjatlari, ushbu shartnomaga va omonat turi qoidasiga rioya etmasdan yoki qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yishi oqibatida bevosita o‘zining omonat mablag‘lariga yetkazilgan zarar uchun “Bank” javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

### **4. Nizolarni hal qilish**

4.1.Tomonlar ushbu shartnomaga bo‘yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni va kelishmovchiliklarni muzokara yo‘li bilan hal etadi.

4.2.Munozaralarni muzokara yo‘li bilan hal etishning imkonini bo‘lmasa, nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etiladi.

4.3.Bahslar va nizolar Bank joylashgan hududdagi vakolatli sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

### **5. Fors major holatlari**

5.1.Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnomaga bo‘yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlarida, ya’ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko‘ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo‘lmagan holatlarda (pul kredit siyosatidagi dinominatsiya, yer qimirlash, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganliklari uchun javobgar bo‘lmaydilar. Majburiyatni to‘liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo‘ladi.

### **6. Shartnomani amal qilish muddati**

6.1. Mazkur omonat (depozit) shartnomasi omonat hisobvaraqga pul mablag‘lar kelib tushgan paytdan kuchga kiradi va omonat hisobvaraq yopilgunga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnomaga majburiyatlarini omonat summasi va belgilangan foiz daromadlari “Omonatchi”ga to‘liq berilganidan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.

6.3. Shartnomaga majburiyatlarini bir tomonlama o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi. Shartnomaga kiritilgan har qanday o‘zgarish va qo‘srimchalar yozma shaklda tuzilib imzolanib tasdiqlanadi hamda mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.4. Ushbu shartnomaga bir xil huquqiy kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, taraflarga bir nusxdan beriladi.

### **7. Maxsus shartlar**

7.1. Bank “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishga yoki uni bajarishni rad etishga haqlidir.

7.2. Omonatlarning qaytarilishi O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 18 fevraldagisi O‘RQ-1031-son “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari

to‘g“risida” Qonuning 26-moddasiga ko‘ra, bir bankda bir omonatchiga to‘lanadigan kompensatsiya kafolatlash ob’ekti qoldig‘ining ikki yuz million so‘m yoki undan kam bo‘lsa to‘liq hajmini, agar kafolatlash ob’ektining qoldig‘i ikki yuz million so‘mdan ko‘p bo‘lsa faqat ikki yuz million so‘mni tashkil etadi.

7.3. Omonat muddati tugagandan keyin ushbu hisobvarak bo‘yicha 1 (bir) yil davomida hech qanday amaliyot amalga oshirilmasa, undagi mablag‘lar 842 - tartib raqamli “20206 - Jismoniy shaxslarning talab kilib olinguncha saqlanadigan depozitlari” hisobvarag‘ida ochiladigan mos shaxsiy hisobvaraqqqa o‘tkaziladi.

## **8. Taraflarning manzili va rekvizitlari**

### **“Bank”**

“Garant bank” AJ Amaliyot boshqarmasi

Manzil: 100060, Toshkent shahar,  
Mirobod tumani, S. Baraka ko‘chasi 78.

MFO 00439 STIR 201053901

x/v

Tel: (71) 255-82-21

Amaliyot boshqarmasi/ EXO boshqaruvchisi  
F.I.O

Imzo \_\_\_\_\_

### **“Omonatchi”**

Omonatchi

F.I.O.

Tug‘ilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Tel: \_\_\_\_\_

Yashash manzili: \_\_\_\_\_

Pasport: \_\_\_\_\_

Berilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Kim tomonidan berilgan:

Omonat shartnomasi shartlari va bank Tarifi  
bilan tanishdim

Imzo \_\_\_\_\_